

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024 1-SON**  
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.G'.Mo'minov, X.O.Abdinazarova</b>	
Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy – ijtimoiy geografik foydalanishning bazi masalalari .....	144
<b>M.O.Gopirov</b>	
Изменения в территориальной структуре автомобильной промышленности США .....	148
<b>Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev</b>	
Ershi shahrining yuzaga kelishi va rivojlanishda geomorfologik omillarining o'rni va ahamiyati .....	153
<b>K.M.Mahmudov, X.T.Egamberdiyev, G.X.Xolbayev, S.M.Muminova</b>	
Iqlim o'zgarishi sharotida havo harorati hamda atmosfera yog'inlarining o'zgarishini baholash (Andijon viloyati bo'yicha) .....	157
<b>O.I.Abdug'aniyev, Z.I.Mamirova, N.A.Ahmadjonova</b>	
Yer tuzish ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni loyihalashtirish va asoslash.....	167
<b>A.M.Toshpo'latov, Sh.Z.Jumaxanov</b>	
Anklav hududlarni geografik tadqiq etishning konseptual asoslari.....	172
<b>D.R.Eshmirzayev, G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev</b>	
Iqlim o'zgarishi sharotida havo haroratining davrlar bo'yicha o'zgarishini baholash (Samarqand viloyati misolida) .....	180
<b>E.G'.Mahkamov, Sh.Sh.Hakimova</b>	
Tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning tarixiy-ekologik jihatlari .....	186
<b>Y.I.Ahmadaliyev, B.S.Tojidinov, X.I.Saidova</b>	
Yer resurslarini majmuali tadqiq etishga geografik yondashuvning zarurati.....	190
<b>N.O'.Komilova</b>	
Etnoekologik tadqiqotlarning ijtimoiy-geografik yo'nalishlari va bosqichlari.....	195
<b>Y.I.Ahmadaliyev, P.S.Otaqulov, A.E.Madraximov</b>	
Geografik terminlarning tabiatni muhofaza qilishdagi o'rni va ahamiyati.....	199
<b>Z.A.Temirov, D.A.Turg'unboyeva</b>	
Tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri.....	206
<b>O.I.Abdug'aniyev, M.M.Qahhorova</b>	
Tayanch ornitologik hududlarini muhofaza qilishning ekologik-geografik jihatlari.....	212
<b>M.M.Atajonov</b>	
Andijon viloyati qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning ba'zi bir masalalari .....	217
<b>A.A.Isayev, S.A.Ergashev</b>	
Andijon viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan sikkili ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish .....	220
<b>M.N.Dehqonboyeva, M.R.Mahammadova</b>	
Farg'ona viloyatida yo'ldosh shaharlar loyihasining ayrim jihatlari .....	224
<b>D.M.Abduraxmonov</b>	
Landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....	230
<b>D.B.Kosimov</b>	
Chegara hududlaridagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni integratsiyasining nazariy asoslari .....	234
<b>H.N.Naimov</b>	
Landshaftlarni kartalashtirish va ulardan foydalanish masalalari (Shimoliy Farg'ona misolida) .....	239
<b>M.H.Otamirzayeva</b>	
Daryo havzasi landshaftlarining strukturasi va funksiyasini shakllantiruvchi tabiiy, biologik va ijtimoiy tizimlar .....	243
<b>U.Sh.Uktamov</b>	
Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari.....	248
<b>S.M.Xudoyberdiyeva</b>	
Talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini shakllantirishda tabiat elementlarining o'rni .....	252
<b>T.D.Komilova</b>	
Hududlarning ekologik karkasini rejalashtirishda landshaft yondashuvidan foydalanish .....	257

**YER RESURSLARINI MAJMUALI TADQIQ ETISHGA GEOGRAFIK YONDASHUVNING  
ZARURATI**

**НЕОБХОДИМОСТЬ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ПОДХОДА К КОМПЛЕКСНОМУ  
ИЗУЧЕНИЮ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ**

**THE NEED FOR A GEOGRAPHICAL APPROACH TO AN INTEGRATED STUDY OF  
LAND RESOURCES**

**Axmadaliyev Yusufjon Ismoilovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, geografiya kafedrasи professori, g.f.d.

**Tojidinov Bobur Sirajidinovich<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Andijon davlat universiteti, geografiya kafedrasи o'qituvchisi

**Saidova Xosiyatxon Ibrohim qizi<sup>3</sup>**

<sup>3</sup>Farg'ona davlat universiteti,  
geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxasisligi magistranti

**Annotatsiya**

*Maqolada yer resurslarining o'ziga xos xususiyatlari va ularning mintaqaviy tamoyil asosida "joydan-joyga" tomon o'zgarib borishi, bunday mintaqaviy o'ziga xosliklarni o'rganishda geografiya fanining ustun tomonlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek yer resurslarini landshaftning tarkibiy qismi, ishlab yaiqarish vositasi sifatida tasniflash hamda yer fondi va tuproqni holatini baholash usullari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.*

**Аннотация**

*В статье рассматриваются специфика земельных ресурсов и их изменение "от места к месту" по региональному принципу, в том числе доминирующие аспекты географии при изучении региональных особенностей. Также представлена информация о классификации земельных ресурсов как компонента ландшафта и средства производства, а также о методах оценки состояния земельного фонда и почвы.*

**Abstract**

*The article reflects on the specifics of land resources and their change from "place to place" based on the regional principle, the dominant aspects of geography in the study of such regional identities. Information is also provided on the classification of land resources as a component of the landscape, as a means of production, and methods for assessing the condition of the Land Fund and soil.*

**Kalit so'zlar:** Yer resurslari, yer fondi, hudud, ekologik-xo'jalik balansi sug'oriladigan yerlar, landshaft turlari, tuproq-ekologik indeks.

**Ключевые слова:** Земельные ресурсы, земельный фонд, территория, эколого-хозяйственный баланс, орошаемых земель, типы ландшафта, почвенно-экологический индекс.

**Key words:** Land resources, Land trust, area, ecological-economic balance, irrigated lands, landscape types, soil-ecological index.

**KIRISH**

Tabiatda mayjud bo'lgan turli xil tabiiy resurslar orasida boshqa alternativ resurslar bilan almashtirish, joylashgan o'rnini o'zgartirish, boshqa joyga ko'chirish imkonи bo'Imagan yagona resurs sifatida yer alohida ahamiyat kab etadi. Kishilik jamiyatining mavjudligi va rivojlanishi bevositayer bilan uzviy bog'liqidir, chunki u insonning ajralmas yashash joyidir. Shu bilan bir vaqtdayerresurslari tabiatning tarkibiy qismi bo'lib, uning rivojlanishi va xususiyatlari joyining geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, ichki suvlari, o'simlik va boshqa komponentlarga, bir so'z bilan aytganda, landshaftiga bog'liq bo'ladi.

Xalq xo'jaligi tarmoqlarida yer turli funksiyani bajaradi. Sanoat, transport va qurilishda u ishlab chiqarishni tashkil etish uchun maydon (hudud), qishloq va o'rmonxo'jaligida esa mehnat yo'naltirilgan predmet sifatida namoyon bishladi. Shu bilan birga, yer mehnat vositasidir: uning yordami bilan inson hayot va faoliyat uchun zarur bo'lgan o'simliklarni o'stiradi.

Bir vaqtning o'zida tabiatning o'ziga xos komponenti va jamiyatda ishlab chiqarish vositasi sifatida yer boshqa tabiiy komponentlar va ishlab chiqarish vositalaridan ajralib turadigan xususiyatlarga ega.

Kishilik jamiyat foydalanadigan boshqa tabiiy resurslar (foydale qazilmalar, suv, o'simlik va xayvonot dunyosi va boshqalar) dan farq qiladigan quydagi jihatlarga ega:

- foydalanish jarayonida makonda doimiyligi, joyni o'zgartirish (boshqa joyga olib borish) imoniyatini yo'qligi, unumdar tuproq mavjud bo'lgan yerdan faqat tabiat tomonidan yaratilgan joylarda foydalanish mumkin;

- qishloq va o'rmon xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish o'simliklarning yetarlicha rivojlanishi uchun zarur bo'lgan boshqa tabiiy omillar (yorug'lilik, havo xarorati, suv, tuproq qoplami) bilan chambarchas bog'liq;

- yerdan foydalanish jarayoni tabiiy ravishda ritmiylik hususiyatiga bog'liq bo'lib, yil fasillariga, ob-xavo va iqlimga bevosita bog'liq ravishda amalga oshiriladi.

Yer resurslarini ishlab chiqarish vositasi sifatida ham boshqa resurslardan farqli tomonlari mavjud. Avvalo, boshqa resurslardan farq qilib u mexnat maxsuli emas, balki tabiat yaratmasidir. Ishlab chiqarish jarayonida (qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligida) tabiatdan resurslarning o'zi emas, balki faqat ularning yordami bilan olingan o'simlik mahsulotlari olinadi, chunki yerning asosiy xususiyati uning unumdorligidir. Yerning yuqorida sanab o'tilgan o'ziga xos geografik xususiyatlarni to'g'ri hisobga olish asosida undan oqilona foydalanish, unumdorligini muntazam oshirib borishga erishiladi. Unumdarlik manbai sifatida geografik, biologik, agrotexnik, tashkiliy-xo'jalik va iqtisodiy omillar majmuasini keltirish mumkin. Bu omillarning barchasi birgalikda unumdarlik ko'rsatkichiga ta'sir etadi. Ushbu ta'sir hududiy-mintaqaviy ko'rinishda bo'lib, uni o'rganishda ham majmuali, mintaqaviy yondashuvgina kutilgan natijani beradi [3].

Yuqoridagi o'ziga xos ko'rsatkichlar ishlab chiqarish vositasi sifatida yer resurslaridan oqilona foydalanish uchun ushbu omillarning har birini hududiy, mintaqaviy yo'nalishda aniqlash, hisobga olishva baholashni taqazo etadi. Yerning yuqorida tabiiy xususiyatlari va unga ko'rsatilayotgan antropogan ta'sirlar "joydan joyga" tomon o'zgarib borishi uning geografik taqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining asoschilaridan biri N.N. Baranskiy tabiiy sharoitlar va resurslarni o'rganishda kompleks, hududiy yondashuv zarurligini ta'kidlagan bo'lsada [4, 162-b.], biroq bu tavsiyalari darhol hisobga olinmadidi. Yer resurslaridan foydalanish va o'rganishga standart (trafaret) yondashuv natijasida yerlarning holati keskin yomonlashdi va har qanday tuproqni himoya qilish va yaxshilash choralarini kutilgan natijalarni bermadi. Bu xolat amaliy fanlar mutaxassislarini ham yer resurslarini o'rganishda mintaqaviy yondashuv zarurligini e'tirof eta boshladilar. V.A. Kozlovda yer resurslarini o'rganishda neotektonika, geomorfologiya, gidrologiya va geokimyonni hisobga olgan holda kompleks ekologik rayonlashtirish usullaridan foydalanish zarurligi haqida yozgan bo'lsa [12, 100c.] , Ukrainalik iqtisodchi V.P. Semko tuproq jarayonlarini boshqarish vatuproq unumdorligini ta'minlashda. hech qanday holatda shtamp, standart bo'lmasligi kerak ekanligini ta'kidladi [29; 23-b.].

Mazkur maqolada «tuproq», «yer», «yer resurslari» va «yer fondi» tushunchalaridan foydalaniladi. Ma'lumki, tadqiqot terminalogiyasini aniqlab olish, har bir termin va atamalarga yuklangan ma'noni to'g'ri anglash, ularni bir xil ma'noda qo'llanishini ta'minlash lug'oviylar ma'nosiga to'g'ri yondashuv talab etiladi. Shuning uchun ham dastlab shu masalaga to'xtalish maqsadga muvofiq.

Qishloq xo'jaligida xosildorlikni manbai sifatida asosiy e'tibor tuproqqa qaratiladi. Albatta unga beriladigan va ko'chilik tomonidan e'tirof etiladigan ta'rif ham shu soha mutaxassislarini tomonidan berilgan. Unga ko'ra «tuproq-iqlim, organizmlar, grunt, mahalliy relyef va o'lkanning yoshi kabi omillarning birgalikdagi faoliyati ta'sirida paydo bo'ladigan tabiiy-tarixiy hosiladir» [7].

Yer esa, quruqlikning faol, genetik mustaqil ustki qatlami bo'lib, u o'ziga xos iqlim, tuproq qatlami, alohida maydonlar relyefi va shakllarini, ularni hosil qiluvchi omillarning barchasini o'zida mujassamlashtiradi. Bunday yondashuvda yer tushunchasi tuproqdan ancha keng ekanligi namoyon bo'ladi.

Yer resurslari tushunchasining mazmuni bir qator ilmiy adabiyotlarda ochib berilgan [18; 9; 10; 25; 8; 3]. Ushbu ishlarni umumlashtirib, yer resurslariga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Yer resursi bu - yer fondining tarkibiy qismi bo'lib, u tuproqning o'ziga xos sifat ko'rsatkichlari, ma'lum hududgagina xos bo'lgan iqlim, relyef, gidrogeologik xususiyatlari bilan tavsiflanadi, jamiyatning muayyan rivojlanish bosqichida turq xossalardan kelib chiqib undan zarur qishloq ho'jaligi mahsulotlar yetishtirishda yoki boshqa tarmoqlarda hudud (moydon) sifatida foydalaniladi. Kishilik jamiyatining hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan hudud va o'zining noqulay sifat ko'rsatkichlari, iqtisodiy unumdorligining pastligi sababli ishlatilmaydigan yerlar, imkoniyatdagi yer resurslari qatoriga kiritiladi.

## NATIJALAR

Yer fonda esa mamlakat chegaralari doirasidagi (qisman qo'shni davlatlardagi) korxona, tashkilot, muassasa va fuqarolarning foydalanish maqsadiga qarab toifalarga bo'lingan maydondir. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 2024-yil 1-yanvar holatiga jami yerlar 44892,4 ming gektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa 4342,5 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,7 foizini tashkil qiladi [27].

O'zbekiston Respublikasi yer resurslarini engmukammal tasniflaridan biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlarmaxkamasining 2023-yil 30-oktabrdagi 578 son qarori bilan tasdaqlangan "Yer resurslarining holati bo'yicha milliyhisobatni yuritish tartibi to'g'risidagi nizom"da ishlab chiqildi. (Yer resurslarining holati bo'yicha milliyhisobatni yuritish tartibi to'g'risidagi nizom"). Unga ko'ra mamlakatimiz yer resurslari foydalanish maqsadiga ko'ra 8 ta toifaga bo'linadi. Bu toifalari yer uchastkalarining tabiiy va foydalanish xususiyatlari muvofiq yer turlariga ajratiladi. Yangi tasnif bo'yicha yer xisoboti avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali 10 ta shaklga muvofiq yuritiladi [26].

Ushbu tasnidda 01-satr – qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar toifasini tashkil qilib, bu toifa foydalaniuvchilar turiga qarab 10 ta turga bo'linadi. Yer fondining boshqa toifalaridagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar alohida xisobga olinadi.

Aholi punktlarining yerlari 02-satr bo'yicha xisobga olinib, ular 02.1-shahar va shaharcha yerlari va 02.2- qishloq va ovul yerlarga, ularning har biri yana 3 ta mayda guruhchalarga bo'linadi.

Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar 0.3- satr bilan xisobga olinadi. 0.3.1 sanoat yerlari 4 ta kichik guruxga, 0.3.2 transport maqsadlariga mo'ljallangan yerlar 5ta kichik guruxga, 03.3 -aloqa yerlari, 03.4- mudofa yerlari, 03.5- ijtimoiy soha obyektlari yerlari, 03.6- boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlarga bo'linadi.

Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar 04-satr bilan xisobga olinadi. Bu satrdagi 04.1-tabiatni muxofaza qilish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar o'z navbatida 7 ta kichik guruhga bo'linadi. Sog'lomlashtirish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar-04.2 va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar-04.3 gruxlarga birlashtiriladi.

Tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlar 0.5- satr bilan belgilanib 4ta kichik gruxga birlashtiriladi. O'rmon fonda yerlari 0.6 satrga birlashtirilib 2ta kichik gruxga, Suv fonda yerlari 0.7 satrga joylashtirilib, o'z navbatida 6 ta kichik gruxga birlashtiriladi. Zahira yerlar mamlakatimizda 0.8- satr bilan xisobga olinadigan bo'ldi.

Bu tasnid dan tadqiqot davomida Andijon viloyati tog'-oldi va adir hududlarining ekologik-xo'jalik balansini baxolash jarayonida foydalanish foydalaniladi. **Hududning ekologik-xo'jalik balansi (muvozanati)** - bu tabiatning mavjud va potensial imkoniyatlarini hisobga olgan holda, hududdagi turli aholi guruhlari hamda turli faoliyat turlari o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtirishdir. Bunday yondashuvda tabiat va jamiyatning barqaror rivojlanishi, tabiiy resurslarning qayta tiklanishi ta'minlanadi, ekologik o'zgarishlar salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi [13; 46-59 b].

Hududning ekologik-xo'jalik balansini aniqlash orqali yerdan foydalanish tarkibini takomillashtirish, landshaft elementlari tarkibi bilan yerdan foydalanish turini bir-biriga mosligini ta'minlashga erishiladi. Hududning ekologik-xo'jalik balansini aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar o'rganiladi: yer turlari va toifalari, tabiatni muhofaza qilishga mo'jjallangan yerlar maydoni, hududning ekologik-xo'jalik jahatidan zo'riqish darajasi (holati), hududning tabiiy himoyalanganlik darajasi, hududning ekologik fondi. Istalgan hududni, ma'muriy birlikni ekologik-xo'jalik balansini aniqlashning mukammal, asosli sxemasi B.I.Kochurov tomonidan taklif etilgan [13; 4-17-s]. Demak, hududning ekologik-xo'jalik balansi deganda- landshaftlarning barqarorligini ta'minlashda muhim bo'lgan modda va energiya oqimining barqaror darajasini qo'llab-quvvatlash, tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish hamda tabiat va tabiiy resurslardan iqtisodiyotning turli sohalarida foydalanish jarayonida salbiy ekologik o'zgarishlarni keltirib chiqarmaydigan faoliyat turlari o'rtasidagi o'zaro nisbatning optimal holati tushuniladi. Yerdan foydalanish sog'asida bunga erishish uchun ekologik va xo'jalikda foydalaniladigan yerlar muvozanatni (balansini) ta'minlash talab etiladi.

Geografiya fanida turli xil rivojlanish qonunlari asosida faoliyat yurituvchi, bir biri bilan uzviy alopqada bo'luvchi tizimlar yaratildi. Bu iqtisodiy qonunlar asosida faoliyat yurituvchi hududiy- ishlab chiqarish tizimlari va tabiiat qonunlari asosida rivojlanuvchi tabiiy-hududiy tizimlardir [13]. Bunda ishlab chiqarish (xalq xo'jaligi tarmoqlari) va tabiiy-landshaft tizimlarni o'zaro aloqasi yuz beradigan joy, o'zining tabiiy (iqlim, relyef, tuproq, suv...) va ishlab chiqarish (haydalma yer, o'tloq, mevazor...)

## ILOVA TO'PLAM: GEOGRAFIYA

komponentlariga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlaridir. Bu tizimlarning o'zaro munosabatini muvofiqlashtirish ham yer resurslaridan oqilona foydalanishni hududiy tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Oqilona foydalanish mezoni bo'lib esa ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy unumdarlik xizmat qiladi.

Yer resurslaridan qay darajada foydalanilayotganligini tahlil qilish uning ilmiy asoslangan tasnifini (klassifikatsiyasini) ishlab chiqish bilan boshlanadi. Dastlab, o'rganilayotgan hududdagi yer resurslarini tabiiy- landshaft ko'rsatkichlari bo'yicha tasniflab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yer resurslari tabiiy landshaft majmuasi qonunlari asosida faoliyat ko'rsatadi va rivojlanadi. Uni to'la tasniflash uchun mintaqada majud landshaftlarning barcha komponentlarni hisobga olish zarur. Bu komponentlar miqdori mintaqaviy tabiiy sharoitdan kelib chiqib turlicha bo'lishi mumkin, lekin fanda barcha joylar uchun xos bo'lgan komponentlar mavjud. Ularga relyef, ona jins, issiqlik va suv rejimi, tuproq, o'simlik qoplami kiritiladi [23; 2; 20; 28; 17; 5; 30]. Farg'ona vodiysiga o'xshash tog' oralig'i landshaftlari uchun balandlik pog'onasi o'zgarishi bilan boshqa landshaft hosil qiluvchi komponentlarni ham o'zgarib borish qonunyati aniqlangan [2, 67-s]. Shu bois yerlarning geografik o'rganish negizida ularni landshaft turlariga ajratish yotadi.

Farg'ona vodiysida yerlarning sifat jihatidan tasnifish landshaftlarni tabiiy-agrar imkoniyatni (TAI) o'rganish asosida olib borildi. Tabiiy-agrar imkoniyat (potensial) tushunchasi geografiyada yaxshi o'rganigan [6; 11; 16; 24; 22; 3; 1]. Landshaftlarning tabiiy-agrar imkoniyat deganda - hozirgi holatda va kelajakda iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik vazifalarni hal qilishda foydalanish imkoniyati bo'lgan, ma'lum sifat va miqdor ko'rsatkichlarda ifodalangan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qo'llanadigan tabiiy sharoit va resurslarni o'zida jamlagan umumlashgan ko'rsatkichlar majmuasi tushuniladi. Landshaftlarning tabiiy –agrар imkoniyati Farg'ona vodiysi bo'yicha bir necha martda tadqiqotchilar tomonidan, landshaft balandlik mintaqalari bo'yicha xisoblab chiqilgan [3; 19; 21; 1]. Bu tabiiy ko'rsatkichlarni vaqt davomida o'zgarishi qiyinligini hisobga olib ulardan geografik tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Tabiiy-agrar imkoniyatni aniqlash ma'muriy tumanlarning qishloq ho'jaligida foydalanish mumkin bo'lgan landshaftlari hududini aniqlashtirishdan boshlanadi. Bunda yirik masshtabli haritalar, GIS texnologiyalari hamda MFYlar joylashgan hududlar tahlilidan foydalaniladi. Har bir landshaft turini shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi hududning geomorfologik, iqlimi, tuproq va gidrologik sharoitlarini ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkichlar baholanadi. Bunda Andijon viloyatining tog'-oldi va adir yerlaridan bir vaqtin o'zida tabiiy-agrar imkonyatlari turlicha bo'lgan 6 ta landshaft turlari ajratiladi.

Yer resurslaridan intensiv foydalanish jarayonida uning sifat ko'rsatkichlarini o'zgarish dinamikasini aniqlashda Rossiya Federatsiyasidagi V.V.Dokuchayev nomli Tuproqshunoslik institutida ishlab chiqarilgan tuproq-ekologik baholash uslubiyotidan foydalanish mumkin. [31; 15]. Mazkur uslubiyotda hududning xududning tuproq ko'rsatkichlaridan tashqari geomorfologik holati, agrokimyoiy agroiqlim, gidrologik va gidrogeologik ko'rsatkichlari va ulardan foydalanish jarayonida yuz bergen o'zgarishlar maxsus formulalar yordamida aniqlanadi. Shuningdek, ishning maqsadidan kelib chiqib bir hududning o'zida yangilangan ko'rsatkichlar asosida qayta-qayta baholash o'tkazish mumkin. Bunda shakllangan ishlab chiqarish turi ta'sirida o'rganilayotgan hududda tuproq-ekologik holatining ijobiy yoki salbiy tomoniga o'zgarishi, bunday o'zgarishning sabablarini tahlil qilish va maqsadga erishish uchun tavsiyalar berish imkoniyati tug'iladi. Mazkur tadqiqot ishida tuproq-ekologik xolatdagi o'zgarishlar oxirgi 50 yildagi ma'lumotlar asosida o'rganib chiqildi.

### XULOSA

Shunday qilib, baholashning jamlovchi ko'rsatkichi (tuproq-ekologik indeksi) tuproq, agrokimyoiy va iqlim ko'rsatkichlari ko'paytmasiga teng bo'ladi. Olingen natijalarni solishtirish orqali har bir o'rganilayotgan hududda tuproqlar holati o'zgarishiga ilmiy asoslangan xulosa chiqarish imkoniyati tug'iladi. Bunday o'zgarish borishini bashorat qilish yoki u salbiy tomona bo'lsa, oldini olish chorasini ko'rish mumkin. Uslubiyotdan foydalanishning yana bir qulay tomoni hudud tabiiy-agrar imkoniyatining tarkibiy birliklari tuproq, agroiqlim, gidrologik va geomorfologik sharoitlar alohida holda yoki birgalikda baholanishi, qaysi unsurning o'zgarishi hosildorlik uchun salbiy tomoniga borayotganligini oldindan aytish mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдувалиев Ҳ. Фарғона водийсида аҳоли жойлашувини тадқиқ этишда ландшафт ёндошувининг кўпланилиши:// Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 57-жилд. –Тошкент, 2020. 83-87 бетлар.
2. Абдулкасимов А.А. Проблемы изучения межгорно-котловинных ландшафтов Средней Азии. – Т.: Фан, 1983.
3. Аҳмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси. Т.: «Фан ва технологиялар» нашриёти, 2014.
4. Баранский Н.Н. Избранные труды. Научные принципы географии (под.ред. В.А.Анучина и др.) – М.: Мысль, 1980.
5. Боймирзаев К. Фарғона водийси воҳа ландшафтларидан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш. – Т.: Фан, 2007.
6. Дмитриевский Ю.Д. Очерки социально-экономической географии. -Л.: Наука, 1990.
7. Докучаев В.В. Сочинения. Т. 6. – М.-Л: Изд-во АН ,1951.-595с.
8. Жумаев Т. Ж. Экология иқтисодиёти. –Т.: ТДИУ, 2004.
9. Замков О.К. Методы экономической оценки земель и земельный кадастр// Итоги науки и техники, сер.геогр., т.14.-М.:ВИНТИ, 1978.- С. 13-38.
10. Зорыкин К.В. Агрогеографическое изучение земельных ресурсов// Вопросы географии, Сб. 124. Природные комплексы и сельское хозяйство. – М.: Мысль, 1984. -С.11-24.
11. Ишмуратов Б.М. Региональные системы производительных сил (географические основы географического анализа).-Новосибирск: Наука, 1979.
12. Ковда В.Н. Почвенный покров, его улучшение, использование и охрана. - М.:– Наука, 1981.
13. Коучуров Б.И., Геоэкология: экодиагностика и эколого-хозяйственный баланс территории. - Смоленск: СГУ, 1999. (<http://www.izdatgeo.ru>).
14. Крючков В.Г. Использование земель и продовольственные ресурсы. – М.: Мысль, 1987.
15. Қўзиев Р.Қ, Юлдашев F., Акрамов И.А. Тупроқ бонитировкаси. -Т.:Молия, 2004.
16. Литовка О.П. Новиков Э.А. Природно-ресурсный потенциал региональных социально-экономических комплексов. – Л.: Наука,1991.
17. Максудов А. Изменение почвенно-экологических условий Ферганской долины под антропогенным воздействием. – Т.: Фан,1990.
18. Минц А.А. Экономическая оценка естественных ресурсов.-М.: Мысль,1972.
19. Мўминов Д. Қишлоқ жойларнинг геоэкологик - хўжалик ҳолати ва уни такомиллаштириш йўллари. Геог. фан. ном. ...дис. автореф.-Т., 2011.
20. Нигматов А.Н. Табиий география ва геоэкология назарияси. – Т.: Наврӯз, 2018.
21. Никанорова А.Д. Ландшафтно-геоэкологическое обоснование оптимизации водопользования в орошаемом земледелии Ферганской долины. Дис.... канд. геог.наук. –М., 2015.
22. Носонов А.М. Территориальные системы сельского хозяйства. (Экономико-географические аспекты исследования). - М.: Янус-К, 2001.
23. Рафиков А.А. Природно-мелиоративная оценка земель Голодной степи. – Т. : Фан, 1976.
24. Субботина Т.М., Природный агропотенциал Пермской области: географический анализ, оценка, использование.: Автореф. дис. ...канд. географ. Наук. - СПб.: 1993.
25. Толипов Г.А., Фуломов Х.Г., Мақсудов Ж.М., Акрамов И.А., Ўзбекистон Республикаси ер кадастри. - Т.:ЎзР Ер ресурслари давлат қўмитаси. 1994.
26. Ўзбекистон Республикаси Ер ресурсларининг ҳолати тўғрисида миллий ҳисобот. Т.: «Ергеодезкадастр» давлат қўмитаси, 2017.
27. Ўзбекистон Республикаси Ер ресурсларининг ҳолати тўғрисида миллий ҳисобот. Т.: «Ергеодезкадастр» давлат қўмитаси, 2024.
28. Уразбоев А. Сугориладиган массивларда кичик худудларни ўрганишнинг табиий-географик асослари ва уларни районлаштириш муаммолари// Табиий ва иқтисодий географик районлаштиришнинг долзарб муаммолари: илмий - амалий конференция материаллари. 29-30 октябрь 2004. –Т., 2004.33-35 б.
29. Цемко В.П., Новоторов А.С., Паламарчук И.К. и др. Оптимизация использования и охрана земельных ресурсов (теоретический аспект). – Киев: Наукова думка, 1989.
30. Шарипов Ш. Тошкент вилоятининг ландшафт хилма-хиллигини саклаш ва геоэкологик вазиятини яхшилаш масалалари.|| Геогр. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф.-Тошкент, 2022.
31. Шашко Л.л., дурманов д.и., карманов и.и. Ефремов в.в. Теоретические основы и пути регулирования плодородия почв.- М.: Агропромиздат. 1991. - 304 с.